



**ULUG'BEK HAMDAMNING "LOLA" HIKOYASIDAGI RAMZIY BELGILAR
VA ULARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI**

Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi

Guliston davlat pedagogika institute 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdam ijodiga nazar tashlanadi, xususan, uning "Lola" hikoyasi va undagi ramziy belgilar, ularning badiiy-estetik xususiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, voqealar rivoji hamda hikoya qahramonlarining ichki kechinmalari ham yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *hikoya, lola, realizm, ramziy belgi, nafs, syujet, dushman, epik asar, monolog*

Аннотация: *В данной статье рассматривается творчество Улугбека Хамдама, в частности его рассказ "Лола", и анализируется его символические персонажи, их художественно-эстетические особенности. Также объясняется развитие событий и внутренние переживания персонажей рассказа.*

Ключевые слова: *рассказ, тюльпан, реализм, символический персонаж, страсть, сюжет, враг, эпическое произведение, монолог*

Annotation: *This article examines the work of Ulugbek Hamdam, in particular, his story "Lola" and its symbolic characters, their artistic and aesthetic characteristics are analyzed. The development of events and the inner experiences of the characters of the story are also highlighted.*

Keywords: *story, tulip, realism, symbolic character, passion, plot, enemy, epic work, monologue*

Hikoya- inson hayotidagi u yoki bu yorqin hodisani xarakter bilan uzviy bog'liq holda tasvirllovchi kichik epik asar bo'lib, adabiyot olamiga kirib kelayotgan har bir ijodkor o'z faoliyatini avvalo shu janrdan boshlaydi. Ulug'bek Hamdam ham ushbu janrlarda samarali qalam tebratgan adib hisoblanadi. Uning "Lola", "Yaxshiyam sen borsan", "Ko'nglimdagi daryo", "Tosh (yoxud yovuzlikning tug'ilishi)" kabi hikoyalari XX asr adabiy muhitida muhim o'rin egallaydi. Adib, asosan, psixologik realizm janrida ijod qilgan. Uning, ayniqsa, "Muvozanat", "Sabo va Samandar", "Isyon va itoat" kabi romanlarida inson ruhiyati, ichki kechinmalari, konfliktlari va jamiyatdagi muammolar ochiq tasvirlanadi.

U.Hamdam har bir asarida falsafiy qarashlarni, yashirin ma'noli jummalarni mahorat bilan qo'llagan, turli "kalit so'zlar" biriktirish orqali o'quvchini chuqur idrok etishga chorlagan. Bu haqida jurnalist va yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad shunday deydi: "Ulug'bekning ijodiga xos xususiyatlardan biri mana shu, u o'z o'quvchisiga taqdim



etayotgan mazmun-mohiyatning osongina ochilishini istamaydi, aksincha uni qatlamlar, pardalar ostiga yashiradi, shu tariqa o'quvchini izlanishga da'vat etadi".²³

Quyida shunday hikoyalardan biri bo'lmish "Lola" hikoyasining ramziy belgilari tahlilini ko'rib chiqamiz.

Hikoya baland cho'qqi va uning yuqorisidagi hammani o'ziga jalb qilayotgan lola tasviri bilan boshlanadi. Hikoyadagi odam ushbu go'zallikka pastdan uzoq tikiladi, unga yetishish uchun intilayotgan va halokatga uchrayotgan insonlarni kuzatadi. So'ngra o'zi ham shu lolaga erishish istagiga tushib qoladi. Shu tariqa hikoya syujeti davom etadi.

Hikoyada yozuvchi lola timsolida insonning nafsini, doim yuqori martabaga erishish, o'zini birinchi o'ringa qo'yish xirsini tasvirlamoqchi bo'lgan, deyish mumkin. Nafsning istayotgan narsalari shu qadar jozibali bo'ladiki, inson xohlasa-xohlamasa o'sha nafs istaklari tomon intiladi. Hikoyadagi lola ham shunday: shu qadar chiroyli, hamma unga erishishni xohlaydi, odamlar unga erishish yo'lida kimsani tanimaydilar, kimsaga rahm qilmaydilar, minglab mashaqqatlarga uchraydilar, qoyaning balandligini, o'lim xavfi borligini ko'rmaydilar. Yozuvchi ushbu qiyinchiliklar tasviri orqali insonning maqsadga erishish yo'lidagi zahmatlarini, vijdon azobi-yu xudbinliklarini ifodalamoqchi bo'ladi.

Insonni hayot, nafs istaklari naqadar o'zgartirib yuborishini yozuvchi ushbu jumlar bilan tasvirlaydi: *"...axir lola meni...faqat meni imlayotir! Qolganlardan yuz o'girganga o'xshaydi, axir mengagina e'tibor berayotir, menigina huzuriga chorlayotir!.. Shuncha odamning orasidan meni siylab oldimi, demak, oldiga shikast yetmay yuksala olishimni biladi va men bu ishning uddasidan chiqaman! Buday imkoniyat hammaga ham nasib etavermaydi, foydalanib qolish zarur..."*²⁴

Asar boshida qahramon es-husli, nima qilayotganini yaxshi bilib turgan odam sifatida tasvirlangan edi, ammo bu jumladan ko'rinadiki, inson qanchalik zakii bo'lmasin qachondir nafsiga tutiladi va uning balo girdobiga bir tushdimi, undan osonlikcha chiqib keta olmaydi. Faqat o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadigan, o'zidan boshqani ko'rmaydigan bo'lib qoladi, butunlay manmanlik qobig'iga o'ralib qoladi.

Shuningdek, hikoyada dushman, savol so'ragan odam va qahramonimiz ta'sirida qoyadan tushib ketgan odam obrazlari bor. Bular ham qaysidir ma'noda ramziy belgilar bo'lib, ulardan: dushman- hayotdagi rosmi dushmanlarni, doim oyoqdan chalishni, baxtsizlikni o'ylaydigan va uni paydo qilishga shay bo'lgan odamlarni, savol so'rovchi odam- vijdon yoki insonni to'g'ri yo'lga boshlab turuvchi kimsani, qahramonimiz ta'sirida qoyadan yiqilgan odam esa inson hayotda bir narsaga erishish yo'lida bilib-bilmay kimningdir orzularini poymol qilishi, kimnidir qurbon qilishining belgilaridir. Darhaqiqat, insonning hayoti shu uch toifa insonlar bilan o'ralgan. Ular umrning asosini tashkil etadi.

²³ X. Do'stmuhammad "Mohiyatini izlayotgan hikoyalar".

²⁴ U. Hamdam. "Yaxshi odamlar"/hikoyalar to'plami/ "Abadiy barhayot asarlar" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2025. 432 B, 114-115-betlar



Hikoya so'nggida inson qoyaga chiqadi, ammo atrofida kimsa qolmaganini, qoya uchida esa undan-da baland qoya borligini ko'radi. Bu orqali yozuvchi nafsning istaklari hech qachon tugamasligini, biriga erishsa, undan kattarog'i chiqaverishini, ularga erishishga intilgan sari odam yolg'izlashib boraverishni, xudbinliklari sabab yakkalanib qolishini ifodalamoqchi bo'ladi.

Yuqorida Ulug'bek Hamdamni psixologik realizmoqimi vakili dedik, ushbu ta'rifimiz bu hikoyada ham o'z aksini topgan. Hikoya davomida odamning ichki konfliktlari, hayajonli monologlarining guvohi bo'lamiz. Adib qahramonning cheksiz o'ylari orqali kitobxonni ham o'ylantiradi, nihoyasiz savollar girdobiga tashlaydi. Masalan, quyidagi jummalarni olaylik: *"Nahotki, bu senga saboq bo'lmasa, nodon? Nahotki, sen yetib boraman, deb o'ylasang? Axir manzilga hali uzoq... Shunchalarki, hatto ko'zlarimning nuri yetmaydi unga!.."*²⁵

Odam bolasi yasharkan, turli yo'llarda turli pozitsiyalarda harakat qiladi: ba'zan sokin, ba'zan jo'shqin, ammo qay holatda bo'lsa ham ichida savollar ovozi tinmaydi. Ba'zan nafs sado bersa, ba'zan vijdon saslanadi. Ikkisi-da insonni harakatga chorlaydi, faqat farqli jihatlar bilan harakatlantiradi. Hikoyada ham xuddi shu holat tasvirlangan: qahramonimiz qoyaga osilib turgan, nojo'ya harakat qiladigan bo'lsa, halokatga uchrashi muqarrar bo'lgan bir vaziyatda turgan bo'lsa ham ongostida savollar "qaynayapti", ammo shu zahotiy oq nafs tilga kiriyapti-yu, inson o'z-o'zidan unga ergashyapti...

Muxtasar qilib aytganda, hikoyada inson va uning umri davomida nafsi-yu vijdoni orasida kechadigan ruhiy holati, savol-javoblari va iztiroblari tasvirlangan, deyish mumkin. Bir qaraganda odatiy tog' cho'qqisidagi lolaga erishish uchun intilayotgan odam tasvirlangan bu asar insonni chuqur mulohaza yuritishga, uning asil mohiyati nima haqida ekanligini o'ylashga majbur qiladi va shu sababli ham yillar o'tsa-da ko'plab kitobxonlarni mutolaaga, muhokamaga jalb qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent-"O'zbekiston"-2002.
2. U. Hamdam. "Yaxshi odamlar"/hikoyalar to'plami/"Abadiy barhayot asarlar" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2025. 432 B, 114-115-betlar
3. U. Hamdam. "Yaxshi odamlar"/hikoyalar to'plami/"Abadiy barhayot asarlar" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2025. 432 B, 115-116-betlar
4. X. Do'stmuhammad "Mohiyatini izlayotgan hikoyalar".

²⁵ U. Hamdam. "Yaxshi odamlar"/hikoyalar to'plami/"Abadiy barhayot asarlar" turkumi – T.: "Oltin qalam", 2025. 432 B, 115-116-betlar

